

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

Ro'yxatga olibdi

No. NO. 9-179

2024-~~y~~

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil "27" dekabr dagi 485 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

"MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR"

yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

Foshkent - 2024

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

### OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

#### OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

#### TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

*Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'limgan yo'nalishlari bo'yicha o'quv-usuliy birlashmalar faoliyatini Muvoqilashuvchi kengashining*

*2024 yil 24.12. - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.*

**Tuzuvchilar:** “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'nnaviy asoslarini” moduli: f.f.d., prof. M.M.Qahhorova, yu.f.b., PhD F.B.Maxmudov.

“Oliy ta'limgan normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish” moduli: yu.f.n., prof. V.Topildiyev, yu.f.d., prof. B.I.Ismailov.

“Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar” moduli: t.f.d., prof. D.Irgasheva, p.f.b., PhD Sh.Adashboev, p.f.b., PhD A.Obidov. “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish” moduli: i.f.d., prof. R.Nurimbetov p.f.b., PhD N.Xaqnazarova.

“Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish” moduli: p.f.d., prof. N.A.Muslimov, p.f.b., PhD I.Eshmamatov, R.Dj.Ishmuxammedov, A.Turayev, A.Abduraxmonov.

“Ta'limgan sifatini ta'minlashda baholash metodikalari” moduli: p.f.d., prof. N.A.Muslimov, p.f.d., prof. J.Tolipova, p.f.b., PhD M.Innazarov.

“Zamonaviy molyaning dolzlar muammolari” moduli: i.f.d., prof. X.X. Xudoqulov; i.f.f.d., dots. M.J. Bauyetdinov.

“Zamonaviy molyaning rivojlanish tendensiyalari” moduli: i.f.d., prof. X.X. Xudoqulov; i.f.f.d., dots. M.J. Bauyetdinov.

**Taqrizchilar:** D.X. Pulatov – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.  
D.N. Husanov – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

**Xorijiy ekspert:** Ch.R.Kuliyeva – Osh universiteti, professori, Moliya kafedrasini professori, i. f. d.

**Hamkor tashkilotlar:** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va unga qarashli tashkilotlar.

*O'quv dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqqa tawsiya qilingan (2024 yil 29.11. dagi 4 - sonli bayonnomasi).*

#### Kirish

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi tasdiqlangan “Ta'lim to'g'risida” Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta'lim muassasalarini rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchini navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” PF-14-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzlusiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-228-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4996-son qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim muassasalarini rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2024-yil 11-iyuldagagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalarini pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'limgan sohasi bo'yicha pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'nnaviy asoslarini yoritib berish, oliy ta'limgan

normativ-huquqiy asoslari bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-innovatsion faoliyat darajasini oshirish, pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalaridan samarali foydalanish, zamonaviy moliyaning dolzARB muammolarini tahlil etish va ularni hal etish, zamonaviy moliyaning rivojlanish tendensiyalarini ochib berish bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o'z ichiga qamrab oladi:

1.1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiatning ma'naviy asoslari.

1.2. Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish.

- 1.3. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar.
- 1.4. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish.
- 1.5. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.
- 1.6. Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalar.
- 1.7. Zamonaviy moliyaning dolzARB muammolar.
- 1.8. Zamonaviy moliyaning rivojlanish tendensiyalari.

#### **Malakaviy attestatsiya**

#### **Kursning maqsadi va vazifalari**

Oliy ta'lim muasasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyatga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat

#### **Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:**

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

- pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarning o'zlashtirilishini ta'minlash;

- o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirish;

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash.

#### **Kurs yakunida tinglovchilar ning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv modullari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- Yangi O'zbekiston" konsepsiysi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini;
- O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" hamda "Innovatsion faoliyat to'g'risida" Qonunlarini;
- O'zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmini;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni;
- "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyatga tadbiq etish istiqbollarini;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini;
- jamiatning iqtisodiy negizlarini;
- "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni;
- Oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjalari va ularning mazmunini;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim jarayonlarini rejashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarini, o'quv yuklamalarini rejashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini;
- oliy ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;
  - ta'lim jarayonini raqamli transformatsiyasini;
  - raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini;
  - raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasini;
  - mediasavdonlik va xavfsizlik asoslarini;
  - raqamli ta'lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablarini;
  - meta texnologiyalar tushunchasi, avzalliklari va kamchiliklarini;
  - zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt (AI) ning ahamiyatini;
  - ta'limda sun'iy intellektningdan foydalanish istiqbollari va xavflarini;

- bilimlarni sinash va baholashning aqli tizimlarini;
- jahonda oliv ta'lim rivojlanish tendensiyalari: umumiy trendlar va strategik yo'nalishlarni;
  - zamonaviy ta'limning global trendlarini;
  - inson kapitalining iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida rivojlanishida ta'limning yoshdag'i ahamiyatini;
    - oliv ta'limning zamonaviy integratsiyasi: global va mintaqaviy makonda raqobatchilikdagi ustuvorliklari, universitetlarning xalqaro va milliy reytingini;
    - xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarini;
    - zamonaviy universitet jamiyatning faol, ko'pqirrali va samarali faoliyat yurituvchi instituti sifatidagi uchta yirik vazifalarini;
    - universitetlarning zamonaviy modellarini;
    - zamonaviy kelajak universitetlarning beshta asosiy modellarini;
    - tadbirkorlik universiteti faoliyatining muhim yo'nalishlarini;
    - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini;
    - innovatsion ta'lim muhit sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini;
      - kasbiy kompetensiyalarning mazmun va mohiyatini;
      - kasbiy kompetensiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini;
      - pedagogik texnikaning asosiy komponentlarini;
      - pedagogik texnikani shakllantirish yo'llarini;
      - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar va xalqaro tajribalar hamda ularning kasbiy kometensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini;
    - kasbiy kompetetnsiyalarini rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini;
    - kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda uchraydigan to'siqlarni yechishda, to'g'ri harakatlar qilishda pedagogning kompetentlik va kreativlik darajasi, pedagogik kvalimetriyasini;
      - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning nazariyasini;
      - ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni;
      - kredit-modul tizimida talabalarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashning o'ziga xos xususiyatlari, didaktik funksiyalarini;
        - baholash turlari, tamoyillari va mezonlarini;
        - moliya tizimidagi dolzarb muammolarni;
        - moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlarini;
        - davlat moliyasinini boshqarishning amaldagi holatini;
        - davlat byudjetidan moliyalashtirish mexanizmlarini;
        - davlat qarzlarini boshqarish usullarini;
        - davlat qarzlarini qoplash manbalarni;
        - byudjet-soliq siyosatinining ustuvor yo'nalishlari va natjalarni;

- pul-kredit siyosatinining ustuvor yo'nalishlari va natjalarni;
- korxonalarda moliyaviy masalalarni;
- aksiyadorlik jamiyatlar qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishdagi muammolarni;
  - aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion siyosatini;
  - aksiyadorlik jamiyatlar kapitallari tarkibini;
  - aksiyadorlik jamiyatlariga kapitalni jaib qilishda muammolarni;
  - moliya bozorlarining turlarini;
  - moliyaviy ma'lumotlar, ularning ahamiyati, zarurligi va turlarni;
  - moliya bozorlaridagi raqamli texnologiyalarni foydalanishdagi muammolarni;
    - moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish dasturlarini;
    - moliya tizimining rivojlanishi va ilmiy qarashlarni;
    - moliya tizimining transformatsiyalashuvi xususiyatlarini;
    - davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini;
    - davlat moliyasinini boshqarishni isloh qilish yo'nalishlarini;
    - natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish mexanizmlarini;
    - davlat qarzlarini samarali boshqarish usullarini;
    - davlat qarzlarini qoplash manbalarni;
    - byudjet-soliq siyosatinining ustuvor yo'nalishlari va amalga oshirish mexanizmlarini;
    - pul-kredit siyosatinining ustuvor yo'nalishlari va amalga oshirish mexanizmlarini;
      - bank tizimi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini;
      - korxonalarning moliyaviy arxitekturasini;
      - aksiyadorlik jamiyatlar qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish mexanizmlarini;
        - aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion strategiyasini;
        - aksiyadorlik jamiyatlar kapitallari boshqarish mexanizmlarini;
        - aksiyadorlik jamiyatlariga kapitalni jaib qilishda IPO va SPO usullaridan foydalanish yo'llarini;
          - moliya bozorlarining turlari va rivojlanish tendensiyalarni;
          - moliyaviy ma'lumotlar, ularning ahamiyati, zarurligi, turlarini;
          - moliya bozorlaridagi raqamli texnologiyalarning rivojlanish yo'nalishlarini;
          - zamonaviy moliyaviy texnologiyalar (FinTech), nazorat texnoogiyalari (SupTech) va sug'urta texnologiyalar (InsurTech)ni;
          - moliyaviy xizmatlarni innovatsion texnologiyalar yordamida taqdim etish yo'llari: "katta ma'lumotlar" (Big data), sun'iy intellekt texnologiyalari, bulutli texnologiyalarni;
            - moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish dasturlari va diagnostikani;
            - moliyaviy modellashtirish xususiyatlari va prinsiplarini;
            - empirik moliyaning prinsiplarini **bilishi** kerak.

### Tinglovchi:

- “O‘zbekiston-2030” strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
  - O‘zbekistonning xalqaro maydondag‘i siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tahlil etish va baholash;
  - yangi O‘zbekistonning ma’naviy va madaniy tiklanish dasturlari asoslarini o‘zlashtirish;
  - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta’lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
  - xorijiy tajribalar asosida malaka talablar, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
  - korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyatini yoritib berish;
  - multimedia va infografika asosida interaktiv didaktik mayeriallar yaratish va bulut xizmatlarida saqlash;
  - masofiviy ta’lim platformalari uchun video kontent yaratish;
  - Internetda mualliflik huquqlarini himoya qilish usullaridan foydalanish;
  - raqamli ta’lim resurslari sifatini baholash;
  - pedagogik jarayonda sun’iy intellektning rolini tahlil qilish va ahamiyatini o‘chib berish;
  - ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning afzallikkari va kamchiliklarini aniqlash;
  - OTMlarni reyting bo‘yicha ranjirlash;
  - jahon universitetlari reytingini tahlil etish va baholash;
  - universitetlarni mustaqil baholash yondashuvlarini aniqlashtirish;
  - tadbirkorlik universitetiga o‘tish uchun zarur bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlash;
  - Universitet 1.0 dan Universitet 3.0 modeliga o‘tish borasidagi muammolarni aniqlash;
  - zamonaviy tadbirkorlik universiteti modeli tamoyillarini o‘zlashtirish;
  - pedagoglarning kreativ potensiali tushunchasi va mohiyatini o‘chib berish;
  - pedagoglar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash;
  - o‘qituvchi faoliyatida pedagogik texnikaning axamiyatini yoritib berish;
  - tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortish usullaridan foydalanish;
  - kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini tahlil etish;
  - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to‘siqlar, qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish;
  - talabalarning o‘quv auditoriyadagi faoliyatini baholash;
  - talabalarning kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, o‘quv-malakaviy amaliyot (mehnat faoliyati)ini nazorat qilish;
  - baholashning miqdor va sifat tahlilini amalga oshirish;
  - davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini joriy etish.

- o‘zbekistonda moliya bozorlarining shakllanishi.
- davlat moliyasiga oid richard masgreyv qarashlarini o‘rganish;
- davlat moliyasinini boshqarishni takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish;
- natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish mexanizmlaridan foydalanish;
- moliyaviy modellashtirish;
- moliyaviy xizmatlarni innovatsion texnologiyalar yordamida taqdim etish yo‘llari: “katta ma’lumotlar” (big data), sun’iy intellekt texnologiyalari, bulutli texnologiyalarning amaliy ahamiyatini o‘chib berish;
- moliya bozorlarining turlari va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;
- zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni amaliyotga tadbiq etish *ko’nikmalariga* ega bulishi lozim.

### Tinglovchi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish;
- O‘zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini o‘chib berish;
- Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta’lim standartlari, ta’lim yo‘nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablar, o‘quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o‘quv yuklamalarni rejorashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlarini tahlil etish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro‘yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibidan samarali foydalanish;
- an’anaviy va raqamli ta’limda pedagogik dizaynning xususiyatlarini o‘chib berish;
- onlayn mashg‘ulotlarni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mediasavodxonlik va xavfsizlik asoslarini o‘zlashtirish;
- pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish;
- meta texnologiyalarni ta’limga samarali integratsiya qilish yo‘llaridan foydalanish;
- ta’limdag‘i sun’iy intellektning xususiyatlarini muhokama qilish;
- xalqaro reyting turlari va ularning indikatorlarining ahamiyatini o‘chib berish;

- OTM reytingiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish;
- universitetlarning zamonaviy modellarini o'rganish;
- OTM bitiruvchilarli va xodimlari tomonidan texnologiyalar transferiga litsenziyalar oluvchi startaplarni shakllantirish va yaratish;
- professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish;
- innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- pedagog kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hususiyatlarini tahlil etish va baholash;
- ijtimoiy va kasbiy tajribaga asoslangan intellektual mashqlarni ishlab chiqish;
- o'quv jarayoni ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiyo do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, tinglovchilarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, tinglovchilarning hamkorlikda ishlashlari uchun qulay sharotni vujudga keltirish;
  - tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini o'rganish, tanishish;
  - kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirish jarayonida pedagogik deontologiyaning roli, ahamiyatini ochib berish;
  - ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar (moddiy-texnik baza, professor-o'qituvchilarning salohiyati va o'quv-metodik ta'minot)ni tahlil etish va baholash;
  - talabalarining o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholash;
  - talabalarining o'quv auditoriyadan tashqari faoliyatini baholashda o'quv topshiriqlari (reproaktiv, produktiv, qisman-izlanishli, kreativ (ijodiy) murakkablik)ni ishlab chiqish metodikasidan samarali foydalanish;
  - aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment muammolarini hal etish;
  - aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy bozorlarda ishtirokinini ta'minlash masalalarini urganish;
  - davlat qarzlarini samarali boshqarish usullarini kullash;
  - aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion strategiyasini ishlab chikish;
  - aksiyadorlik jamiyatlarini kapitallarini boshqarish mexanizmlarini qo'llash;
  - qimmatli qog'ozlar bozorida derivativlar rolini ochib berish;
  - aktivlar bozorining rivojlanishini tahlil etish va baholash;
  - minitab, statsoft (statistica), comsol, microsoft excel, sas (statistical analysis software), matlab, spss, stata, xl stat, wizard mac dasturlaridan foydalanish;
  - moliya bozorlaridagi raqamli texnologiyalarning rivojlanish yo'nalishlarini belgilash **malakalariga** ega bulishi lozim.

### Tinglovchi:

- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;
- "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlarini amaliyatga tadbiq etish;
- yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish amal qilish va ularni ijrosini ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarini aniqlash, manfaatlar to'qnashivi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalarni oldini olish va bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta'minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo'llanishi lozim bo'lgan xorij tajribasidan foydalanish;
- raqamli ta'lim resurslari va dasturiy mahsulotlarini o'quv jarayoniga faol tatbiq etilishini tashkil etish;
- raqamli ta'lim resursini pedagogik loyihalash texnologiyasi asoslarini o'zlashtirish;
  - raqamli ta'lim muhitiда pedagogik dizaynga oid innovatsiyalarni amaliyatga tatbiq etish;
  - meta texnologiyalarni tahlil qilish va ularning ta'limdagи ta'sirini ochib berish;
    - sun'iy intellektning asosiy xususiyatlarini asoslab berish;
    - universitetlarning xalqaro va milliy reytingini baholash;
    - OTMlarda talim, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarini tijoratlashirish yo'llarini tahlil etish va amaliyatga tadbiq etish;
    - «Amaliyotchi professorlar» (PoP, Professor of Practice) modelini qo'llash;
    - professor-o'qituvchilarning tadqiqotchi sifatidagi nashr faolligini rivojlantirish istiqbollarini yoritib berish;
    - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini amaliyatga tadbiq etish;
    - pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik trayektoriyalarini ishlab chiqish;
    - kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida uchraydigan to'siqlarning xilma-xilligi va o'ziga xos xususiyatlari, sabablarini amaliy tomonlarini yoritish, ularni yechish bosqichlarini guruh bilan birgalikda aniqlash;
    - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholash;
    - talabalar kasbiy tayyorgarlik sifatini kompleks baholashning elektron

monitoring tizimini yuritish;

- talabalarning ta'limiylar (o'quv predmetlari), tarbiyaviy (ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar) va rivojlantiruvchi (ilmiy-tadqiqot ishi, start-up loyihalar) maqsadlarini baholash;
- moliyaning dolzab muammolari bo'yicha to'g'ri xulosalarni shakllantirish va tegishli qarorlar qabul qilish;
- davlat moliyaviy resurlarini shakllantirish va ulardan natijali foydalanish;
- aksiyadorlik jamiyatlar moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish;
- moliyaviy bozorlarda raqobat sharoitini yarata olish;
- raqamli texnologiyalarni amalga oshirish sharoitida moliyaviy qarorlar qabul qilish;
- talabalarda moliya va moliyaviy texnologiyalar bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni zamonaviy texnologiyalar asosida shakllantirish;
- Aksiyadorlik jamiyatlarida omnaviy, birlamchi va ikkilamchi aksiyalarini chiqarish.
- moliya bozorlarida raqamlashtirish bilan bog'liq muammolarni oldini olish;
- byudjet-soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari va amalga oshirish mexanizmlaridan foydalanish;
- pul-kredit siyosatinining ustuvor yo'nalishlari va amalga oshirish mexanizmlarini kullash;
- aksiyadorlik jamiyatlar moliyaviy strategiyalarini ishlab chiqish;
- aksiyadorlik jamiyatlariga kapitalni jalb qilishda ipo va spo usullaridan foydalanish;
- moliya bozorlardagi axborot assimetriyalari va turli xil moliyaviy tizimlarni joriy etish *kompetensiyalariga* ega bulishi lozim.

#### Kurs hajmi

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 288 soatni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan mustaqil malaka oshirish shakllari asosida, 144 soati to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestatsiyadan muvaffaqiyatlari o'tgan kurs tinglovchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi PF-4732-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

#### "MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR" YO'NALISHI BO'YICHA QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH KURSINING O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

#### 1.1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari.

"Yangi O'zbekiston" konsepsiysi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni va orttirilgan tajriba. "O'zbekiston-2030" strategiyasining ahamiyati. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirish. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi. Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o'zgarishlar va ularning zaruriyat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududi va davlat tuzilishi masalalari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslari.

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. "Yashil" va inkylyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollari.

Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash. Ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglik va yoshlar siyosati. Yoshlarning mamlakat rivojidagi roli. Yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari.

Milliy ma'naviyat va qadriyatlari, yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari. Global jarayonlar va O'zbekistonning o'rni, O'zbekistonning xalqaro maydonidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalari. "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar.

#### 1.2. Oliy ta'limga normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish.

Oliy ta'limga sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Oliy ta'limga tizimini tartibga soluvchi normativ - huquqiy xujjalarning tushunchasi. Normativ-huquqiy xujjalarning turlari. Normativ huquqiy xujjalarga qo'yiladigan talablar. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'limga to'g'risida"gi qonuni. Ta'limga jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish. Ta'limga to'g'risidagi qonun xujjalarini buzganlik uchun javobgarlik.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limga tizimini 2030 yilgacha rivojlanterish konsepsiysi va uning mohiyati. Oliy ta'limga sohasiga oid qonunosti hujjatlari va

ularning turlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'limgiz tizimiga oid farmonlari va qarorlari: O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limgiz tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Davlat oliy ta'limgiz muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar. Davlat oliy ta'limgiz muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari.

Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari. O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari. Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talabları, o'quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar. O'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari. OTMlarning lokal xujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar).

Meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mehanizmlari. Ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlarini ishlab chiqish. Xorijiy tajribalar asosida Malaka talablari, o'quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish.

Oly ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbzularliklarga qarshi kurashish vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillari.

Oly ta'lim tizimida manfaatlar to'qashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarining ko'rinishi, manfaatlar to'qashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta'minlash (nomzodlarni tekshirish tartibi), ushbu sohada qo'llanishi lozim bo'lgan xorij tajribasi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy assoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro'yhatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibi.

### **1.3 Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar.**

